



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MILLIY VA GLOBAL QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI JARAYONIDA O‘ZBEKISTON YOSHLARI HAYOTIY MAQSADLARI SHAKLLANISHINING O‘ZIGA HOS MANZARASI

Karimov Sanjar Sindorqulovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, kafedra mudiri (PhD)

Annotatsiya

Maqolada globallashuv va raqimli transformasiya sharoitida O‘zbekiston yoshlarining hayotiy maqsadlari va qadriyatlar tizimida kechayotgan o‘zgarishlar va tendensiyalar falsafiy jihardan tahlil etiladi. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yosh avlod ongida pragmatik intilishlar bilan an’anaviy ma’naviy qadriyatlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar manzarasi mazkur tadqiqotning markaziy masalasi sifatida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, hayotiy maqsadlar, aksiologiya, globallashuv, milliy o‘zlik, qo‘sh identlik, “O‘zbekiston - 2030”, pragmatizm.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ ЦЕЛЕЙ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА В ПРОЦЕССЕ ИНТЕГРАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Каримов Санжар Синдоркулович

Центр педагогического мастерства Джизакской области, заведующий кафедрой (PhD)

Аннотация

В статье с философской точки зрения анализируются изменения и тенденции, происходящие в системе жизненных целей и ценностей молодежи Узбекистана в условиях глобализации и цифровой трансформации. Центральной проблемой исследования выступает изучение противоречий, возникающих в сознании молодого поколения между прагматическими стремлениями и традиционными духовными ценностями в процессе реформ, реализуемых в рамках стратегии «Узбекистан – 2030». Также рассматривается влияние национальной идентичности, двойственной идентичности и новых аксиологических взглядов, формирующихся под воздействием глобальной культуры, на мировоззрение молодежи.

Ключевые слова: молодежная политика, жизненные цели, аксиология, глобализация, национальная идентичность, двойственная идентичность, «Узбекистан – 2030», прагматизм.

SPECIFIC FEATURES OF THE FORMATION OF LIFE GOALS AMONG UZBEK YOUTH IN THE PROCESS OF INTEGRATION OF NATIONAL AND GLOBAL VALUES

Karimov Sanjar Sindorqulovich

Jizzakh Regional Center for Pedagogical Excellence, Head of Department (PhD)

Abstract

The article philosophically analyzes the changes and trends occurring in the system of life goals and values of Uzbek youth in the context of globalization and digital transformation. The central issue of the study is the contradiction emerging in the minds of the younger generation between pragmatic aspirations and traditional spiritual values during the reforms implemented within the framework of the “Uzbekistan – 2030” strategy. The article also highlights the influence of national identity, dual identity, and new axiological views shaped under the impact of global culture on the worldview of young people.

Keywords: youth policy, life goals, axiology, globalization, national identity, dual identity, “Uzbekistan – 2030”, pragmatism.

Aholisining o‘rtacha yoshi 28,5 yoshni tashkil etadigan, 14–30 yosh oralig‘idagi fuqarolari taxminan 9,6 million nafarga yetgan O‘zbekistonda yoshlar masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [13]. Demografik tarkibning bu xususiyati O‘zbekistonni ilm-fanda “demografik darcha” deb ataluvchi noyob holatga qo‘yadi. Ya’ni, mehnatga layoqatli avlodning nisbatan katta ulushi taraqqiyotning drayveriga aylanishi ham, qo‘llab-quvvatlanmagan taqdirda ijtimoiy taranglik manbaiga aylanishi ham mumkin. Shu sababdan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va Uchinchi Renessans g‘oyasi asosidagi ta’lim-tarbiya islohotlari yosh avlodni milliy uyg‘onishning faol subyekti hamda harakatlantiruvchi kuchiga

aylantirish maqsadini ko'zlaydi.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari esa bu manzaraga o'ziga xos ziddiyatli jihatlarini ham mujassamlashtiradi. Boshqacha aytganda, raqamli platformalar, ommaviy madaniyat va migratsiya chegaralarining kengayishi asnosidagi xalqaro mehnat bozorining beqiyos imkoniyatlari yoshlar ongiga endilikda biz uchun an'anaviy bo'lmagan qadriyatlar oqimini yo'naltiradi. Mazkur oqim ikki xil kuchga ega: bir tomondan, u shaxsiy erkinlik, raqobatbardoshlik va innovatsion tafakkur kabi taraqqiyparvar g'oyalarni olib kelsa, ikkinchi tomondan, iste'molchilik psixologiyasi, o'tkinchi qadriyatlar va milliy o'zlikdan uzoqlashish xavfini ham o'z mazmunida mujassamlashtirishi bilan ziddiyatlidir.

Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston yoshlarining qadriyatlar tizimi va hayotiy maqsadlari. Predmeti — globallashuv hamda milliy taraqqiyot strategiyasi ta'sirida bu maqsadlarning transformatsiyasini boshqaruvchi tendensiyalardir. Asosiy farazimiz esa global va milliy qadriyatlarni bir-birini istisno etuvchi muqobil yo'nalishlar sifatida emas, balki o'zaro bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida talqin qilishdan iboratdir.

Metodlar. Maqolaning uslubiy asosini aksiologik metod, tizimli yondashuv, qiyosiy-tipologik tahlil hamda rasmiy ma'lumotlarni ikkilamchi tahlil qilish usuli tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston yoshlari hayotiy maqsadlari shakllanishining eng yorqin empirik ko'rsatkichlaridan biri yoshlarning oliy ta'limga intilishidagi keskin o'sishdir. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 2016-yilda atigi 9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 25 foizga, 2022-yilda 38 foizga va 2023-yilda 42 foizga ko'tarildi; mamlakatdagi 213 ta oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar soni 1,3 milliondan oshdi [14]. Bu raqamlar oddiy statistik o'sish emas, balki yoshlar ongida bilim va malakaning qadri ortib borayotganini ko'rsatuvchi ma'naviy o'zgarishning miqdoriy ifodasidir.

Bu jarayonni qadriyatlar evolyutsiyasi nazariyasi orqali izohlash maqsadga muvofiq. R. Inglehart va K. Velzel iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlangan sari jamiyat ongi "omon qolish" qadriyatlaridan "o'zini namoyon qilish" qadriyatlari sari siljishini, bunda ta'lim, ijodiy mehnat va shaxsiy avtonomiya yuqori pog'onaga ko'tarilishini asoslab bergan edi [4; 45-b.]. O'zbekistondagi ta'limga ommaviy intilish ana shu umumbashariy o'tish jarayonining milliy ko'rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki yosh avlodning zamonaviy qarashlarida diplom endi yuksak maqomning o'zi emas, balki farovon hayot, muvaffaqiyat va ijtimoiy mobillikning vositasiga aylanmoqda.

Ikkinchi tendensiya sifatida raqamli iqtisodiyot talablari va ko'nikmalarining instrumental qadriyatga aylanishini ko'rsatish mumkin. Xususan, "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" tashabbusi hamda yoshlarning xorijiy tillar bo'yicha xalqaro sertifikatlar olishga bo'lgan intilishlari bu tendensiyaning yaqqol namoyonidir [11]. Yoshlarning ingliz tilini o'rganishi yoki dasturlash kompetensiyasini rivojlantirishi global mehnat bozoriga chiqishning zaruriy sharti ekanligi bilan bog'liq. Bu holat pragmatizm kayfiyatlarining ustuvor tendensiyaga aylanayotganligini ko'rsatadi.

Yoshlarning raqamli kompetensiyaga bunday intilishini A. Appaduray taklif etgan tahlil apparati orqali ham o'qish mumkin. Uning fikricha, zamonaviy globallashuv beshta oqim — etnoskeyp, mediaskeyp, texnoskeyp, finansoskeyp va ideoskeyp ko'rinishida kechadi va aynan texnoskeyp hamda mediaskeyp oqimlari yosh avlodning kundalik tasavvur ufqini milliy makon doirasidan tashqariga olib chiqadi [1; 33-b.]. O'zbek yoshining axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni puxta egallashga bo'lgan ehtiyoji ushbu oqimlarning milliy zaminga kirib kelishining namoyon bo'lishidir.

Shu bilan birgalikda, yoshlar orasida oila qadriyatining barqaror saqlanib qolayotganligini ham kuzatish mumkin. Jumladan, o'zbek jamiyatida nikohga kirish ayollarda o'rtacha 22 yoshni, erkaklarda esa 27 yoshni tashkil etishi turmush qurish, oilali bo'lish va oilaviy baxtga erishish bilan bog'liq qadriyatlar jamiyatimizda hayotiy rejalarning markaziy elementi sifatida barqaror ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi [13]. Bu dalillar esa "globallashuv jarayonlari muqarrar ravishda an'anaviy institutlarni yemiradi" degan iddaolarni shubha ostiga oladi.

Qolaversa, mahalla institutining yoshlar siyosatidagi o'rni — 9 mingdan ortiq mahallada faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari tarmog'i — an'anaviy jamoaviy birdamlik shakllarining zamonaviy boshqaruv tizimiga organik tarzda singdirilganidan dalolat beradi [12]. Mahalliy tadqiqotchilar bu hodisani milliy o'zlikni asrash mexanizmi sifatida talqin qiladilar. A. Abdullayev o'z tadqiqotida yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyatning uyg'unligi ijtimoiy barqarorlikning zaruriy sharti ekanini, dunyoviylik dindorlikni inkor etmasdan, balki uni jamoat hayotining ma'naviy resursi sifatida tartibga solishini asoslaydi [9; 47-b.]. Demak, modernizatsiya va an'anaviylik har doim ham bir-birini qat'iy tarzda inkor etmaydi.

Shu bilan birga, yana bir muhim masalani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Xususan,

ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tadqiqotchilar tomonidan jiddiy xavotir bilan baholanmoqda. Darhaqiqat, nazoratsiz axborot oqimi qadriyatlar tizimi va hayotiy maqsadlarning mazmuniga putur yetkazishi, o'tkinchi va iste'molchilik bilan bog'liq kayfiyatlarni kuchaytirishi hamda yosh avlod ongida ma'naviy bo'shliq paydo qilishi haqidagi qarashlar ham jiddiy faktlarga asoslanadi [10]. Bu xavf yuqorida tilga olingan ijobiy tendensiyalarning teskari tomonini tashkil etadi va davlat siyosatining ma'naviy-mafkuraviy yo'nalishini yanada dolzarblashtiradi.

Yuqoridagi natijalar yaxlit holda bir tekis chiziqli emas, balki ikki vektorning kesishuvini namoyon etmoqda. Yosh avlod bir vaqtning o'zida individual yutuq va raqamli mustaqillikka (global vektor) hamda oila, mahalla va ma'naviy meros barqarorligiga (milliy vektor) intiladi. Bu ikki vektorning o'zaro inkor emas, balki o'zaro to'ldirish asosida birlashishi mumkinligini isbotlash maqolamizning markaziy empirik xulosasidir.

Muhokama. Yuqorida kuzatilgan tendensiyalarni nazariy jihatdan izohlash uchun globallashtirish va o'ziga xoslikning munosabati haqidagi yetakchi konsepsiyalarga murojaat qilish o'rinlidir. Jumladan, Z. Bauman o'zining "suyuq zamonaviylik" (liquid modernity) tushunchasi orqali postmodern jamiyatda barqaror identliklarning yemirilib borishini, ijtimoiy aloqalar va qadriyatlarining o'tkinchi hamda iste'molga moslashuvchan tabiat kasb etishini ta'riflagan edi [2; 12-b.]. Uning fikricha, individuallashtirish an'anaviy jamoaviy mansublikni zaiflashtirishi muqarrar hisoblanadi. Ammo O'zbekiston misolida bu bashorat to'liq tasdiqlanishini topmaganligini kuzatish mumkin.

Bugungi davrning mashhur nazariyotchilaridan biri M. Kastels esa axborot asrida shaxs o'zligini endi an'anaviy institutlar emas, balki tarmoqlar va madaniy oqimlar shakllantirishini ko'rsatib bergan. U identlikning uch shaklini ajratadi: hukmron tartib yuklagan "legitimlashtiruvchi identlik", unga qarshilik ko'rsatuvchi "qarshilik identligi" va subyekt o'zi faol quradigan "loyiha identligi" [3; 8-b.]. O'zbek yoshlarining hozirgi holatida aynan "loyiha identligi" shakli eng maqbul yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yoshlar ustuvor qadriyat oqimini passiv tarzda qabul qilmaydi, balki o'z milliy negizidan turib, kerakli unsurlarni tanlab, o'z qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini mustaqil ravishda shakllantiradi.

Bu qarashni A. Appaduray va R. Robertson nazariyalari yanada aniqroq tushunish imkonini beradi. Appaduray globallashtirish madaniy bir xillashuvga emas, balki gomogenizatsiya va heterogenizatsiyaning bir vaqtda kechishiga olib kelishini ta'kidlaydi [1; 32-b.]. Robertson esa bu jarayonni "glokalizatsiya" atamasi bilan ifodalaydi [5]. Unga ko'ra, global namuna mahalliy zaminga ko'chganda o'zgarib, mahalliy ma'no bilan qayta uyg'unlashadi. O'zbek yoshlarining global texnologiyalarni o'zlashtirib, ularni oilaviy va mahalliy qadriyatlar tizimiga moslashtirib ishlatishi sof glokalizatsiya hodisasidir. Natijada chetdan ko'chirilgan emas, balki milliy zaminda qayta ishlangan gibrid madaniy shakllar yuzaga keladi.

Mazkur kuzatuvlardan kelib chiqib, tadqiqotda yuzaga chiqqan hodisani "selektiv globallashtirish" tushunchasi bilan nomlashni taklif qilamiz. Uning mohiyati shundaki, yoshlar global oqimdan asosan instrumental resurslarni (texnologiya, til, kasbiy standart, tadbirkorlik ko'nikmasi) qabul qiladi, terminal qadriyatlar (oilaviy, vatan, e'tiqod, ma'naviy meros) sohasini esa nisbatan himoyalangan holda saqlab qoladi. Bu jarayon mahalliy falsafiy adabiyotda ham o'ziga xos tarzda e'tirof etilgan. Masalan, S. Atamurodov globallashtirish sharoitida millatni asrashning bosh sharti milliy o'zlikni anglash va dunyoviylik bilan diniylik mutanosibligini ta'minlash ekanini ta'kidlaydi [6; 27-b.].

Aynan shu nuqtai nazardan milliy taraqqiyot strategiyasining bugungi davrdagi alohida vazifasi namoyon bo'ladi. Ya'ni, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Uchinchi Renessans g'oyasi globallashtirish jarayonlariga qarshi to'siq emas, balki zaruriy madaniy filtr vazifasini o'taydi deb hisoblash mumkin. Ma'naviyatshunos olim A. Erkayev bu hodisani "ma'naviy immunitet" tushunchasi orqali ifodalab, "faqat ma'naviy jihatdan yetuk shaxs tashqi salbiy ta'sirlarga nisbatan ichki qarshilik kuchiga ega bo'ladi" deb ta'kidlaydi [7; 19-b.]. Faylasuf olimlar I. Saifnazarov va A. Obidov esa diniy bag'rikenglik hamda dinlararo hamjihatlik ijtimoiy barqarorlikning muhim omili ekanini asoslab, bu immunitetning jamoaviy o'lchovini ko'rsatib beradilar [8; 63-b.].

Bunday muvozanatning kelajakdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik uchun ahamiyati ikki tomonlama. Agar pragmatik intilishlar real iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta'minlanmasa — ya'ni bilimli yoshlarning kutilmalari mehnat bozori voqeligidan oshib ketsa — bu nomutanosiblik begonalashuv, NEET (ta'lim va bandlikdan tashqarida qolgan yoshlar) qatlamining kengayishi va tashqi migratsiyaga turtki berishi mumkin. Davlat dasturlarida yangi ish o'rinlari yaratish va biznesni qo'llab-quvvatlash orqali millionlab fuqaroning bandligini ta'minlash maqsadi qo'yilgani [11] aynan shu xavfni kamaytirishga qaratilgan.

Aksincha, ta'lim, bandlik va ma'naviy mansublik uchligi muvofiqlashtirilgan taqdirda, yosh avlod barqarorlikning eng ishonchli kafiliga aylanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston yoshlari ongida global va milliy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat ziddiyatli emas, balki integrativ tabiatga ega.

Ikkinchidan, yoshlar global oqimdan asosan instrumental qadriyatlarni o'zlashtirib, hayotiy qadriyatlar sohasini milliy negizda saqlab qolishga intilmoqda. Bu holat milliylik va globallikning selektiv sintezidir.

Uchinchidan, milliy taraqqiyot strategiyasi bu sintezda izolyatsiyalovchi to'siq emas, balki tanlovchi filtr rolini o'ynaydi. Uning samaradorligi foydali global resurslarni milliy maqsadlarga yo'naltirish qobiliyati bilan o'lchanadi.

To'rtinchidan, yosh avlodning hayotiy maqsadlaridagi pragmatik burilish ijtimoiy barqarorlik uchun ham imkoniyat, ham sinov bo'lib, uning istiqboli ta'lim – bandlik – ma'naviy mansublik uchligining muvozanatiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Appadurai A. *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization*. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. — 248 p.
2. Bauman Z. *Liquid Modernity*. — Cambridge: Polity Press, 2012. — 240 p.
3. Castells M. *The Power of Identity*. 2nd ed. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — 584 p.
4. Inglehart R., Welzel C. *Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005. — 333 p.
5. Robertson R. *Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity* // Featherstone M., Lash S., Robertson R. (eds.). *Global Modernities*. — London: Sage, 1995. — P. 25–44.
6. Atamurodov Sh. *Globalashuv: millatni asrash mas'uliyati*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
7. Erkayev A. *Ma'naviyat va taraqqiyot*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
8. Saifnazarov I., Obidov A. *Dinlararo hamjihatlik — ijtimoiy barqarorlik omili*. — Toshkent, 2019.
9. Abdullayev A. *Yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati* // Yangi O'zbekiston: fan, ta'lim va innovatsiyalar. — 2024.
10. O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Toshkent, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida (PF-37). 2024-yil 21-fevral. — Lex.uz — PF-37 Farmoni
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (№ 23). 2021-yil 18-yanvar. — Lex.uz — Qaror №23
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Aholining demografik ko'rsatkichlari (2024-yil yakuni)*. — Toshkent, 2025.
14. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot*. — Toshkent, 2024.
15. United Nations Development Programme. *Country Programme Document for Uzbekistan (DP/DCP/UZB/5)*. — New York: UNDP, 2025.